BOSHLANG‘ICH TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA O‘QITISH METODLARINING O‘RNI

Ahmedova Dilfuza Ummatovna
Toshkent shahar Mirobod tumani
154-umumiy o‘rta ta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshirishda zamonaviy o‘qitish metodlarining o‘rni, interfaol metodlarning o‘quvchilar faolligi va ta’lim sifatiga ta’siri yoritilgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda dars jarayonida 4K modeli, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli ta’lim vositalari hamda sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, “Jonlangan asar”, “Telefon orqali suhbat”, “Ovoz darajalari”, “O‘zingga tegishlisini top” kabi metodik yondashuvlarning amaliy imkoniyatlari ochib berilgan. Mazkur metodlarning o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, o‘qitish metodlari, 4K modeli, interfaol metod, “Jonlangan asar”, “Telefon orqali suhbat”, “Ovoz darajalari”, AKT, raqamli ta’lim, sun’iy intellekt.*

Kirish

Bugungi kunda ta’lim tizimida yuz berayotgan yangilanishlar boshlang‘ich ta’lim oldiga ham yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Zamonaviy maktab o‘quvchidan faqatgina darslikdagi bilimlarni o‘zlashtirishni emas, balki olingan bilimlardan amaliy vaziyatlarda foydalanish, mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish, o‘z fikrini erkin ifodalash va jamoada ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishni talab etmoqda.

Maktab ta’limi sifatini oshirish, o‘qitish metodikasini takomillashtirish va ilg‘or pedagogik tajribalarni ta’lim jarayoniga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Shu ma’noda boshlang‘ich sinflar uchun yangilanayotgan darsliklarda ham zamonaviy yondashuvlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, 4K modeliga asoslangan yondashuv o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya va kollaboratsiya ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan.

Boshlang‘ich ta’limda o‘qituvchi uchun eng muhim vazifalardan biri — “Nimani o‘qitish kerak?” degan savol bilan bir qatorda “Qanday o‘qitish kerak?” degan savolga ham to‘g‘ri javob topishdir. Chunki bir xil mazmundagi bilim turli metodlar yordamida turlicha o‘zlashtirilishi mumkin. Ayniqsa, kichik yoshdagi o‘quvchilar uchun o‘yin, tasvir, harakat, muloqot va amaliy faoliyatga asoslangan metodlar katta ahamiyatga ega.

Ta’limning asosiy maqsadi faqat o‘quvchiga bilim berish emas, balki uni bilim olish jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirishdir. Bunda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan maqsadli foydalanish dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Asosiy qism

Zamonaviy ta’limda o‘qitish metodlarining ahamiyati.

O‘qitish metodi — muayyan ta’limiy maqsadga erishish, belgilangan vazifani bajarish uchun qo‘llaniladigan usullar majmuasidir. Boshlang‘ich ta’limda metodni to‘g‘ri tanlash o‘quvchilarning darsga qiziqishi, faolligi va bilimni o‘zlashtirish darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

An’anaviy darsda o‘qituvchi ko‘proq axborot beruvchi, o‘quvchi esa uni qabul qiluvchi vazifasini bajarsa, zamonaviy darsda o‘quvchi faol subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. U savol beradi, fikr bildiradi, muammoni hal qiladi, guruhda ishlaydi, o‘z faoliyatini baholaydi va xulosa chiqaradi.

Shuning uchun zamonaviy metodlarni tanlashda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- darsning maqsadi va mazmuni;
- o‘quvchilarning yosh xususiyatlari;
- o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi;
- fan va mavzuning o‘ziga xosligi;
- o‘quvchilarning qiziqishlari;
- darsda foydalaniladigan texnik va didaktik vositalar;
- kutilayotgan ta’limiy natija.

4K modeli — zamonaviy darsning muhim asosi.

4K modeli boshlang‘ich ta’limda o‘quvchini faqat bilim oluvchi emas, balki bilimni mustaqil izlovchi va amaliyotda qo‘llay oluvchi shaxs sifatida shakllantirishga yordam beradi.

Kritik fikrlash. O‘quvchi berilgan ma’lumotni shunchaki qabul qilmaydi, balki uni tahlil qiladi, sabab va oqibatlarni aniqlaydi, savollarga javob izlaydi. Masalan, “Qochoq bug‘doycha” ertagini o‘rganishda bug‘doychaning nima sababdan o‘z joyini tark etgani, uning qarori qanday oqibatlarga olib kelgani muhokama qilinadi.

Kreativlik. O‘quvchi mavjud bilim asosida yangicha g‘oya va obraz yaratishga harakat qiladi. “Jonlangan asar” metodida matn voqealarini rasmlar orqali ifodalash, qahramonlarga yangi obrazlar yaratish bunga misol bo‘la oladi.

Kommunikatsiya. O‘quvchi o‘z fikrini aniq va tushunarli ifodalash, suhbatdoshini tinglash, savol berish va javob qaytarishga o‘rganadi. “Telefon orqali suhbat” metodi aynan shu ko‘nikmani rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kollaboratsiya. O‘quvchilar umumiy maqsad yo‘lida birgalikda ishlaydi, vazifalarni taqsimlaydi va bir-biriga yordam beradi. Guruhli topshiriqlar, raqamli jamoaviy o‘yinlar hamkorlik ko‘nikmasini rivojlantirish uchun samarali vositadir.

Demak, 4K modeli alohida mashg‘ulot sifatida emas, balki turli fan va mavzularga tabiiy ravishda singdirilishi lozim.

“Jonlangan asar” metodi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida obrazli tafakkur muhim o‘rin tutadi. Shu sababli matnni faqat o‘qitish bilan cheklanib qolmasdan, uni ko‘rish, tasavvur qilish va his qilish imkoniyatini yaratish samarali natija beradi.

“Jonlangan asar” metodi matndagi voqealarni tasviriy lavhalar orqali o‘quvchi ko‘z o‘ngida gavdalantirishga asoslanadi. Masalan, 2-sinf “O‘qish savodxonligi” darsligidagi “Qochoq

bug‘doycha” ertagini o‘rganishda o‘qituvchi matn mazmunini 4–5 ta asosiy lavhaga ajratadi. Har bir lavha uchun syujetli rasmlar tayyorlanadi. Dars jarayonida:

- Matn o‘quvchilar tomonidan zanjir usulida o‘qiladi.
- Matnga mos rasmlar namoyish qilinadi.
- O‘quvchilar rasm va matn o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlaydi.
- Rasmlar ketma-ketligi asosida voqealar rivoji tiklanadi.
- O‘quvchilar matnni o‘z so‘zlari bilan qayta hikoya qiladi.
- Guruhlar qahramonlarning holati va xatti-harakatlarini tahlil qiladi.

Ushbu metod orqali o‘quvchi matnni mexanik ravishda o‘qibgina qolmay, uning mazmunini tasavvur qiladi. Ayniqsa, “orzu”, “foyda keltirish”, “o‘z o‘rnini topish” kabi mavhum tushunchalarni obrazlar yordamida tushuntirish osonlashadi. “Jonlangan asar” 4K modelining barcha komponentlari bilan bog‘lanadi: o‘quvchi rasm va matnni taqqoslab kritik fikrlaydi, yangi obrazlar yaratib kreativlik namoyon qiladi, hikoya qilib kommunikatsiya ko‘nikmasini rivojlantiradi va guruhda ishlab hamkorlik qiladi.

“Telefon orqali suhbat” metodi. Boshlang‘ich ta’limda nazariy bilimlarni hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lash muhim. Ayniqsa, informatika fanida texnik vositalardan foydalanish qoidalarini faqat yodlatish emas, balki ularni amaliy vaziyat orqali tushuntirish samaraliroqdir. Bu metod juftlikda tashkil etiladi, o‘quvchilar go‘yoki telefon orqali muloqot qilayotgandek faoliyat olib boradilar.
2-sinf informatika fanidagi “Klaviatura” va “Klaviatura bilan ishlash qoidalari” mavzularini mustahkamlashda ushbu metoddan foydalanish mumkin.
Bunda bir o‘quvchi “Maslahatchi”, ikkinchisi esa “Mijoz” rolini bajaradi.
Masalan:

— Salom, men klaviaturadan foydalanish qoidalarini bilmayapman. Yordam bera olasizmi?

— Albatta. Klaviaturani ehtiyot qilish kerak. Uning ustiga suv to‘kmaslik, ovqatlanayotganda undan foydalanmaslik va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish lozim.

Keyingi bosqichda “Mijoz” klaviaturadagi klavishlar haqida savollar beradi. “Maslahatchi” esa harf-raqamli, boshqaruv va boshqa klavishlar haqida tushuntiradi. Mazkur metodning asosiy afzalligi shundaki, o‘quvchi qoidani shunchaki yodlamaydi, balki uni gapirish, tinglash va tushuntirish orqali qayta ishlaydi.
Bu jarayonda bolalalarda kommunikatsiya, hamkorlik, tanqidiy fikrlash, kreativlik, muloqot madaniyati rivojlanadi.

“Ovoz darajalari” metodi. Boshlang‘ich sinfda dars samaradorligiga ta’sir qiluvchi omillardan biri — sinfdagi ishchan muhitdir. Guruhli va juftlikdagi faoliyat paytida ortiqcha shovqin o‘quvchilarning diqqatini chalg‘itishi mumkin.
Shu sababli “Ovoz darajalari” metodidan foydalanish o‘quvchilarni o‘z-o‘zini boshqarishga o‘rgatadi. Bu o‘rinda uch darajali tizimni joriy qilish mumkin:
1-daraja — “Pichirlash”. Juftlikda ishlaganda faqat yonidagi sherigi eshitadigan darajada gapirish.

2-daraja — “Guruh ovozi”. Kichik guruhlarda ishlaganda faqat guruh a’zolari eshitadigan darajada muloqot qilish.

3-daraja — “Taqdimot ovozi”. Sinf oldida chiqish qilganda barcha o‘quvchilar eshitadigan darajada aniq va ravon gapirish.

O‘qituvchi darsning tegishli bosqichida barmog‘i bilan kerakli darajani ko‘rsatishi mumkin. Dastlabki mashg‘ulotlarda har bir daraja amaliy tarzda mashq qildiriladi. Mazkur metod o‘quvchilarda o‘z-o‘zini nazorat qilish, boshqalarning mehnatini hurmat qilish, muloqot madaniyati va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. “O‘zingga tegishlisini top” enerjayzeri. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uzoq vaqt davomida bir xil faoliyat bilan shug‘ullanganda charchashi mumkin. Bunday vaziyatda qisqa harakatli enerjayzerlardan foydalanish diqqatni jamlashga yordam beradi. Ushbu metodda o‘qituvchi ma’lum shartlarni aytadi, o‘quvchilar esa javobni jismoniy harakat bilan ifodalaydi.

Masalan:

“Kim bugun nonushta qilgan bo‘lsa, chap oyog‘ida tursin!”

“Kim matematika fanini yaxshi ko‘rsa, bir marta qarsak chalsin!”

“Kim kelajakda o‘qituvchi bo‘lishni xohlasa, jilmayib qo‘ysin!”

“Ismida ‘A’ harfi borlar bir marta qarsak chalsin!”

Ushbu faoliyat o‘quvchilarning kayfiyatini ko‘tarish, sinfda ijobiy psixologik muhit yaratish va ularning o‘zini erkin namoyon qilishiga yordam beradi.

AKTdan foydalanish va raqamli ta’lim. Bugungi kunda ta’lim jarayonini raqamli vositalarsiz tasavvur qilish qiyin. AKT o‘quv materialini ko‘rgazmali, interfaol va qiziqarli tarzda taqdim etish imkonini beradi. Masalan, juft va toq sonlarni mustahkamlashda raqamli o‘yinlardan foydalanish mumkin. EduBaza platformasidagi “Arqon tortish” o‘yini bunga yaxshi misoldir. O‘quvchilar ikki jamoaga bo‘linadi va ekranda berilgan sonning juft yoki toqligini aniqlaydilar. To‘g‘ri javob jamoaning umumiy natijasiga ta’sir qiladi. Bunday faoliyatda o‘quvchi sonni tez tahlil qiladi, javobini aniqlaydi, jamoasi bilan hamkorlik qiladi, o‘z fikrini bildiradi, natijani darhol ko‘radi.

Raqamli o‘yinlarning muhim jihati — o‘quvchiga tezkor teskari aloqa berishidir. Shuningdek, sun’iy intellekt vositalaridan o‘qituvchi dars uchun topshiriqlar, savollar, testlar, matnlar, differensial mashqlar va ijodiy vazifalar tayyorlashda yordamchi vosita sifatida foydalanishi mumkin. Bunda AI o‘qituvchining o‘rnini egallamasligi, balki uning metodik faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi vosita bo‘lishi muhim.

Metodlarning ta’lim samaradorligiga ta’siri.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan metodlarning umumiy jihati — o‘quvchini darsning faol ishtirokchisiga aylantirishidir.

Metod	Asosiy maqsad	Rivojlanadigan 4K
Janlangan asar	Matnni obrazli anglash	Kritik fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya, hamkorlik
Telefon orqali suhbat	Hayotiy muloqot orqali bilimni mustahkamlash	Kommunikatsiya, hamkorlik, kreativlik
Ovoz darajalari	Intizom va o‘z-o‘zini boshqarish	Kommunikatsiya, hamkorlik, kritik fikrlash

O‘zingga tegishlisini top	Faollik va ijobiy psixologik muhit	Kommunikatsiya, hamkorlik
Arqon tortish	Raqamli o‘yin orqali bilimni mustahkamlash	Kritik fikrlash, kommunikatsiya, hamkorlik

Demak, metod tanlashda “qaysi metod zamonaviy?” degan savoldan ko‘ra “ushbu metod dars maqsadiga qanchalik mos?” degan savol muhimroqdir.

Xulosa

Boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshirishda zamonaviy o‘qitish metodlari muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Ayniqsa, o‘quvchining yosh xususiyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda o‘yin, tasvir, muloqot, harakat va raqamli texnologiyalarga asoslangan metodlardan foydalanish dars jarayonini yanada mazmunli tashkil etish imkonini beradi.

“Jonlangan asar” metodi o‘quvchilarning matnni ko‘rish, tasavvur qilish va his qilish orqali chuqurroq anglashiga xizmat qiladi. “Telefon orqali suhbat” metodi nazariy bilimlarni hayotiy vaziyatga ko‘chirish va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi. “Ovoz darajalari” o‘quvchilarda o‘z-o‘zini nazorat qilish va jamoada ishlash madaniyatini shakllantiradi. “O‘zingga tegishlisini top” enerjayzeri esa sinfda ijobiy psixologik muhit yaratishga yordam beradi. Raqamli “Arqon tortish” o‘yini esa AKT imkoniyatlarini ta’lim mazmuni bilan uyg‘unlashtiradi. Mazkur metodlarning barchasini birlashtiruvchi jihat — 4K ko‘nikmalarini shakllantirishdir. O‘quvchi dars davomida nafaqat bilim oladi, balki fikrlaydi, ijod qiladi, muloqotga kirishadi va hamkorlikda ishlaydi. Shunday ekan, zamonaviy boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi nafaqat tayyor metodlardan foydalanuvchi, balki dars maqsadi, o‘quvchilarning ehtiyoji va mavjud sharoitdan kelib chiqib yangi metodik yondashuvlarni yarata oladigan ijodkor pedagog bo‘lishi lozim. AKT va sun’iy intellekt vositalaridan oqilona foydalanish esa ushbu jarayonning imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.
Eng muhimi, har qanday metod o‘z-o‘zicha maqsad emas. Metod — ta’lim maqsadiga olib boruvchi vosita. Uni to‘g‘ri tanlash va maqsadli qo‘llash boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishning muhim shartlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan “Milliy o‘quv dasturi”.
3. Matchonov S. va boshqalar. O‘qish savodxonligi. 2-sinf uchun darslik. Toshkent, 2024.
4. G‘afforova T. Boshlang‘ich sinflarda zamonaviy texnologiyalar. Toshkent: “Sharq”, 2011.
5. Ishmuhamedov R., Abduqodirov M. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent, 2008.
6. 2-sinf, 3-qism O‘qish savodxonligi darsligi.

7. 2-sinf Informatika darsligi.
8. EduGames.uz — ta’limiy o‘yinlar va metodik resurslar portali. ZiyoNET — jamoat ta’lim axborot tarmog‘i.